XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIVAVIY MAHSULOTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI	926
Rasulova Dilfuza Valiyevna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH VA MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING DINAMIKASI	932
Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FOYDALANUVCHI SADOQATINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING VA NEYROMARKETING MEXANIZMI SIFATIDA GEYMIKATSIYA ELEMENTLARINI QO'LLASH: DODO PIZZA MOBIL ILOVASI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL	937
Yuldashev Jamshid Abrarovich, Daminova Nilufar Bahrom qizi	



KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	945
Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	948
Murodova Zilola Asatulla qizi	
KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, SHAKLLARI, TURLARI VA YUZAGA KELISH OMILLARI.....	952
Abdullayev Shavkat Nasriddinovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	959
Yaqubova Nodira Olim qizi	
РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	964
Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срождиддинова Зарина Хайриддиновна	
KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....	970
Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI	977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI	983
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....	988
Anvarova Lobarxon	
TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT	992
J.Kamalova	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELI	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



“YASHIRIN IQTISODIYOT”NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O‘RNI

Qo‘shmatov Otaxon Qurbonaliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Audit” kafedrası v.b. dotsenti

Email: qoshmatovotaxon155@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashirin iqtisodiyot subyektlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish, ularning faoliyatini aniqlash va baholashda auditorlik nazoratining institutsional hamda amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Xususan, auditning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta‘minlash, xufiya operatsiyalarni aniqlash, aktivlar harakatini nazorat qilish hamda mulkni saqlanishi ustidan monitoringni kuchaytirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda audit tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari va samarali mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yashirin iqtisodiyot, xufiya iqtisodiyot, audit, auditning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobot xalqaro standartlari, inventarizatsiya, mulkdorlar ulushi, balans likvidligi, mulkni saqlanishi.

Abstract. This article examines the improvement of mechanisms for identifying shadow economy entities and analyzes the institutional and practical role of audit control in this process. Particular attention is given to ensuring the reliability of financial reporting in accordance with international auditing standards, detecting hidden financial operations, monitoring asset movements, and strengthening control over property preservation. The study substantiates effective approaches and priority directions for enhancing the audit system as a key instrument for reducing the share of the shadow economy.

Key words: shadow economy, informal economy, audit, international auditing standards, international financial reporting standards, inventory, ownership share, balance liquidity, asset protection.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы совершенствования механизмов выявления субъектов теневой экономики и определяется роль аудиторского контроля в данном процессе. Особое внимание уделяется обеспечению достоверности финансовой отчетности на основе международных стандартов аудита, выявлению скрытых финансовых операций, контролю за движением активов и усилению сохранности имущества. По результатам исследования обоснованы приоритетные направления и эффективные механизмы развития аудиторской системы как инструмента снижения доли теневой экономики.

Ключевые слова: теневая экономика, скрытая экономика, аудит, международные стандарты аудита, международные стандарты финансовой отчетности, инвентаризация, доля собственников, ликвидность баланса, сохранность имущества.

KIRISH

“Yashirin iqtisodiyot” subyektlarini aniqlash mexanizmini takomillashtirish, shu jumladan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy qilish va uni amalga oshiruvchi shaxslarni rag‘batlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish masalalari iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy nazorat tizimida auditning o‘rni, auditor va mijoz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar kengayib bormoqda. Buning asosiy sababi rivojlangan mamlakatlar YAIM ulushida “Yashirin iqtisodiyot” hajmining 12–15% dan oshmasligidadir. Umuman olganda, bu ko‘rsatkichlarning yuqori bo‘lishi iqtisodiyotda bir qator islohotlarni o‘tkazish kerakligidan dalolat beradi. Bunday islohotlar qatoriga nafaqat soliq va to‘lovlar, balki budjet mablag‘laridan samarali foydalanishning moliyaviy nazoratini to‘g‘ri tashkil qilish ham kiradi.

Budjet ijrosining nazorati va xo‘jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyati doirasida amalga oshiriladigan turli muomalalarning auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uslubiyoti ma‘lum jihatlari bo‘yicha aksariyat bir xil hisoblanadi. Shu sababli, budjet tashkilotlarida mablag‘larning hisobi, saqlanishi va majburiyatlarning qoplanishi audit o‘tkazish usullari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu masala budjet tashkilotlarida ayrim tadbirlarni moliyalashtirish uchun budjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanishga



ruxsat berilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Audit o'tkazish jarayonida bunday mablag'larning shakllantirilishi manbalari o'rganilishi muhimdir.

Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tekshirish va unga baho berish bu tashkilotlarda mustaqil auditorlik riskini pasaytirishini inobatga olib, nazorat savolnomalari, auditning namunaviy rejalari va dasturlarini yaratish zaruriyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni boshqarishdagi o'zgarishlar auditorlardan o'z malakalarini muntazam oshirib borishni talab qilmoqda, aks holda auditor tavakkalchilik darajasining yuqori bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu, o'z navbatida, auditorlik tashkilotlari zimmasiga noto'g'ri ma'lumot berganligi sababli moddiy javobgarlikni qo'yadi. Rivojlangan davlatlarda auditning hozirgi bosqichi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchilikka asoslangan bo'lib, iloji boricha kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik va ularning oldini olishni o'z ichiga oladi.

Xufiya iqtisodiyotni aniqlash va unga barham berishdagi nazoratning vazifalariga auditorlik mezon va standartlarini amaliyotga keng tatbiq etish orqali ularni takomillashtirish borasida izlanishlar olib borish kiradi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasida amaliyotga tatbiq etilayotgan buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini budjet hisobini yuritish tizimiga moslashtirilgan holda yaratish va tatbiq etish nafaqat budjet hisobi, balki budjet ijrosining nazoratini ham xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishdagi muhim tadbir hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, budjet tashkilotlari tomonidan tuziladigan va taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini oshirishi shubhasizdir.

O'zbekiston iqtisodiyoti tuzilmalarida moliyaviy nazorat munosabatlarini rivojlantirish, auditorlik tekshiruvlarini kengaytirish va ularni bozor iqtisodiyoti qoidalariga muvofiq tashkil etish "Yashirin iqtisodiyot" subyektlarini aniqlash mexanizmini takomillashtirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda yashirin iqtisodiyotga quyidagicha ta'rif berilgan: "Yashirin iqtisodiyot, xufiya iqtisodiyot — ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari. Yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol jarayonlari — iqtisodiy munosabatlar bo'lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlarini yotadi. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud" [10].

Agar berilgan ta'rifga chuqurroq e'tibor qaratib, tahlil o'tkazsak, quyidagi savollarga javob qidirib ko'rish kerak bo'ladi. Ya'ni:

- Xufiya iqtisodiyot ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydi. Nega? Albatta, birinchi navbatda soliqlar, ajratmalar va davlat fondlariga to'lovlardan qochish, pul muomalasini bankdan tashqari olib borish maqsadida va shunga o'xshash sabablar bilan izohlanadi.
- Rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar. Albatta, bunday iqtisodiy jarayonlarda rasmiy hisob yuritilmaydi.
- Yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol jarayonlarining ishtirokchisi bo'lib, ijtimoiy taqsimotda to'liq ishtirok etmaydi, balki ayrim kishilar manfaatlarini uchun xizmat qiladi.

Respublikamizda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish bo'yicha bir qancha qonunlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son¹ Qonuni, 2008-yil 7-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi O'RQ-158-son² Qonunlar shular jumlasidandir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston "Adolat" SDP fraksiya a'zosi, Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi raisi o'rinbosari Maqsud Qurbonboyev ushbu muammoni bosqichma-bosqich hal qilishni taklif etdi va quyidagilarni ta'kidladi:

"Tadbirkorlik faoliyati bilan noqonuniy shug'ullangan va o'z daromadlarini yashirgan barcha tadbirkorlik subyektlariga amnistiya qo'llash, ya'ni belgilangan amnistiya muddati ichida tadbirkorlar o'z daromadlarini hech qanday to'siqsiz va ortiqcha tekshiruvlarsiz qayd etib, legallashtirishlari hamda faoliyatlarini davom ettirishlari uchun qonuniy choralar ko'rish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda valyuta qora bozorini yo'q qilish uchun noqonuniy valyuta qora bozorlarini qonuniylashtirgan holda, belgilangan intervallar doirasida bozor narxlarida savdo qiluvchi valyuta ayirboshlash shoxobchalarini tashkil qilish darkor. Naqd xorijiy valyutani bemalol rasmiy soliq to'lab faoliyat yuritadigan xususiy shoxobchalarda almashtirish imkonini berish kerak. Shundan so'ng yashirin savdo qilayotgan valyuta sotuvchilarni qattiq jazolash lozim.

1 <https://lex.uz/mact/-3088008>

2 <https://lex.uz/docs/-1369505>



Davlat tomonidan naqd pulsiz savdo qilayotgan tadbirkorlarga imtiyoz preferensiyalar berish orqali qo'llab-quvvatlash mamlakatimiz iqtisodiyoti barqarorligini yanada ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, rivojlangan davlatlarda bugungi kunga kelib naqd pul muomalasi maksimal darajada qisqartirilgan, barcha pul aylanishi bank orqali amalga oshirilishi davlat iqtisodiyotining rivojlanishiga olib kelishi hech kimga sir emas" [11].

Albatta, yuqoridagi takliflar o'rinni. Ularni amalga oshirish uchun buxgalteriya hisobi va auditning o'rini alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu faoliyatga barham berish yoki uni cheklashda hisob va nazorat tizimining vazifalari qanday bo'ladi? Hozirgi kunga qadar mamlakatimizda bu borada chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan emas. Asosiy vazifa yashirin iqtisodiyot salmog'ini qisqartirishda buxgalteriya hisobi va audit usullarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borish va ushbu faoliyatni xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil qilishdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlaridan yig'ildi. Tahlilda iqtisodiy-statistik, taqqoslash va ekonometrik usullar qo'llanilib, yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichlari hamda audit samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik korelyatsiya va regressiya tahlili asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda bizning mamlakatda moliyaviy nazorat, mustaqil audit, buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil maxsus iqtisodiy fanlarning alohida segmentlari hisoblanadi. Bularning har biri o'z predmeti, izlanish usullari va amaliy qo'llanish jabhalariga ega. Shu bilan birga, ularning bog'liqlik jihatlari va oldidagi maqsadning umumiy jabhalari mavjud, ya'ni to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun aniq ma'lumotlar berish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llarini aniqlash hamda yashirin iqtisodiyot salmog'ini qisqartirish shular jumlasidandir.

Moliyaviy nazorat tizimi bloklari uch turga bo'linadi, ya'ni moliyaviy-budjet nazorati, ichki moliyaviy-xo'jalik nazorati va mustaqil audit.

1. Moliyaviy-budjet nazorati — davlat budjeti smetalarining daromad va xarajatlarini tekshiradi. Buni Moliya vazirligining nazorat va taftish bosh boshqarmasi amalga oshiradi.

2. Moliyaviy-xo'jalik nazorati, ichki nazorat — korxona, tashkilot va birlashmalarning xo'jalik yuritish faoliyati va moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tekshiradi. Buni yuqori tashkilotlarning nazorat va taftish boshqarmalari yoki bo'limlari yoxud ichki audit tizimi amalga oshiradi.

3. Mustaqil audit — moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini aniqlaydi. Buni maxsus litsenziyaga ega mustaqil auditorlik tashkilotlari bajaradi (1-rasm).



1-rasm Moliyaviy nazorat tizimi tekshirish tartibi³

3 Muallif ishlanmasi



I. Moliyaviy nazorat iqtisodiy subyektlari bo'yicha ko'rinishlari:

1. Davlat nazorati.
2. Idoraviy nazorat.
3. Ichki xo'jalik nazorati.
4. Jamoaviy nazorat.
5. Mustaqil nazorat.

II. Manbalariga binoan:

1. Hujjatli.
2. Haqiqiy.
3. Avtomatlashtirilgan.

III. Hajmiga binoan:

1. To'la yoki qisman.
2. Kompleks yoki aniq mavzu bo'yicha.
3. Tanlov asosida yoki barcha jabhalar bo'yicha.

IV. O'tkazish usullariga binoan:

Umumslubiy:

1. Taftish.
2. Audit.
3. Tahlil.

V. Hujjatli tekshirish usullari:

1. Dasturiy baholash.
2. Arifmetik tekshirish.
3. Huquqiy baholash.
4. Mantiqiy nazorat.
5. Qarshi tekshirish.
6. Taqqoslash.
7. Balans bog'liqliklarini tekshirish.

VI. Haqiqiy tekshirish usullari:

1. Inventarizatsiya.
2. Ekspertiza.
3. Kuzatish.
4. O'lchash.
5. Xronometraj.
6. Laboratoriya tahlili.
7. Sud buxgalteriya ekspertizasi.

Zamonaviy axborot tizimi yangi turdagi nazorat usullarini yaratishni majburetmoqda. Bular avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotga ega nazorat usullari bo'lib, hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanmoqda. Umuman olganda, moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirish usullari aksariyat audit yoki taftishda bir xil ko'rinishni kasb etadi.

Auditorlik xizmatlari bozorining rivojlanishi uchun sharoitlarni yanada yaxshilash va auditorlik faoliyatini tartibga solishda xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son⁴ qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan bo'lib, shulardan asosiysi — 2020-yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasida barcha auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshirishi belgilandi. Qarordagi ko'rsatmalar xalqaro darajada differensiyalashgan investitsiyalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

"Yashirin iqtisodiyot" va uning amal qilish mexanizmi moliyaviy nazorat tizimining sustligi hamda tekshirish jarayonida mulkning saqlanishi bo'yicha nazorat amallarining mutlaqo qo'llanilmay qolishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yetarli auditorlik dalillarini yig'ish ushbu muammoni hal etishning asosini tashkil qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Auditorlik dalillarini olish audit amallarini bajarishning negizi hisoblanadi. Tashqi auditorlar o'z ish hajmini qisqartirish maqsadida ichki nazorat tizimi ish natijalaridan foydalanadi. AXS 500–599 "Auditorlik dalillari"da tekshirilayotgan korxona faoliyatining barcha jabhalari bo'yicha auditorlik ashyoviy dalillarini yig'ish va ularni

4 <https://lex.uz/ru/docs/-3914502>



qayta ishlash tartibi keltirilgan. Ushbu standartlar talablaridan kelib chiqib, auditorlik dalillarini olish va ular asosida tahliliy amallar o'tkazishni uch guruhga ajratgan holda o'tkazish maqsadga muvofiq deb belgilangan, ya'ni:

- I. Mulkni saqlanishini tekshirish bo'yicha.
- II. Moliyaviy hisobotlar yuzasidan.
- III. Moliyaviy faoliyat tahlili bo'yicha.

Keltirilgan qismlar bo'yicha dalillar olish hamda nazorat va tahlil o'tkazish uchun quyidagi takliflarni keltiramiz.

I. Mulkni saqlanishini tekshirish. Ichki nazorat tizimi faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha. Bunda asosan korxona ichki auditorlariga quyidagilar yuzasidan samarali ish tashkil qilish taklif etiladi:

1. Aksiyadorlik jamiyatida tashkil qilingan doimiy faoliyat yurituvchi sanoq (inventarizatsiya) komissiyasi faoliyati o'rganiladi.

2. Inventarizatsiyalar qay muddatlarda o'tkazilganligi haqida dalillar olinadi. Moddiy javobgar shaxslarning mehnat ta'tiliga chiqqanligi to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi (ya'ni moddiy javobgar shaxs ta'tilga chiqsa, u moddiy boyliklarni boshqa shaxsga o'tkazadi. Shak-shubhasiz, bundagi sanoq juda sifatli bo'ladi va yangi shaxs o'z zimmasiga faqat sanoqdan o'tgan mavjud boyliklarni qabul qiladi).

3. Hisob-kitoblarning inventarizatsiyasi o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotlar o'rganiladi. Dalil sifatida debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha tasdiqlovchi dalolatnomalar olinadi (akt sverki).

4. Zarur hollarda bank, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqa AJ bilan muqim aloqadagi tashkilotlarga qarshi tekshirish uyushtiriladi.

II. Moliyaviy hisobotlar yuzasidan takliflar:

1. Bozor iqtisodi talablaridan kelib chiqib chop etiladigan ochiq moliyaviy hisobotlarga quyidagi ilovalarni kiritish. Bular AXS dalillarining taqqoslanuvchanlik talabi asosida amalga oshiriladi:

a) Mulkdorlar ulushi (to'liq ochilgan holda).

b) Asosiy vositalar holati (to'liq ochib beriladi, jumladan o'tkazilgan kapital va joriy ta'mirlash to'g'risidagi ma'lumotlar bilan).

c) Investorlar haqidagi ma'lumot.

d) O'tkazilgan audit xarajatlari to'g'risidagi ma'lumot va boshqalar.

III. Moliyaviy faoliyat tahlili bo'yicha takliflar:

Balans likvidligini hisoblash va boshqa samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish bo'yicha takliflar beriladi. Bunda korporatsiya tizimidagi qaram korxonalar albatta e'tiborga olinishi kerak.

Tashqi savdoda yashirin iqtisodiyotni samarali qisqartirish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish bo'yicha ham bir qator muammolar mavjud. Ushbu muammolarni yechish nafaqat moliyaviy nazorat tizimi va uning tarkibiy qismi bo'lgan mustaqil auditni isloh qilishni, balki soliq tizimi, pul muomalasi hamda bozor infratuzilmasining boshqa dastaklarini ham chuqur isloh qilishni talab qiladi. Aks holda yashirin iqtisodiyotni bartaraf etish mushkul.

IV. Soliq hisobotlari shakllari bo'yicha takliflar:

O'ZR DSQ tomonidan ishlab chiqilgan "Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi hujjatda keltirilgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari asosida soliq hisobotlari shakllariga quyidagi takliflarni kiritish o'rinli deb hisoblaymiz.

Respublikamizda bozor infratuzilmasining rivojlanishi sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishning turli ko'rinishlari vujudga kelishi va konsolidatsiyalashgan korporatsiyalarning ko'payishi moliyaviy hisobotlarda ushbu kompaniyalarga xos ko'rsatkichlar keltirilishini taqozo etadi. Shu sababli yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2017. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.
2. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RBQ-419-son Qonuni // <https://lex.uz/mact/-3088008>
3. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
4. Shavkat Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-3914502>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-4746047>
7. Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashining (XAIBSK) sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlar bo'yicha standartlari.



8. Мақсуд Қурбонбоев. Яширин иқтисодиётнинг келиб чиқиш сабаблари, жамиятга таъсири ва бартараф этиш йўллари. [https://: KUN.UZ](https://kun.uz). 2019.05.04
9. Ҳамдамов Б.Қ., Остоноқулов А.А. Бюджет назорат: Ўқув қўлланма. -Т.: Тошкент Молия институти, 2018 йил. 310 бет.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>